

O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR

Samadova Zarinabonu Farhod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

+998977326206, Samadovazarina388@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasidagi mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar haqidagi qarashlarni keng qamrovda tatbiq etadi. O'zbekiston ekologik barqarorlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni uyg'unlashtirish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish uchun bir qator imkoniyatlarga ega: jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol va suv energetikasi) dagi yuqori salohiyat, suv resurslari samaradorligini oshirish imkoniyati hamda qishloq xo'jaligi sektorini modernizatsiya qilish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish yo'nalishlari mavjud. Boshqa tomondan esa, maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishda mavjud asosiy to'siqlar ham tahlil qilingan. Bular qatoriga moliyaviy resurslarning cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, eskirgan infratuzilma, institutsional salohiyatning pastligi va ekologik ongning sustligi kiradi [1]

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik ong, yashil iste'mol, investitsion salohiyat.

Abstract. This article offers a comprehensive examination of the challenges and promising opportunities associated with Uzbekistan's transition to a green economy. In its pursuit of harmonizing environmental sustainability with economic competitiveness, Uzbekistan possesses a number of strategic advantages. These include significant potential in renewable energy sources—namely solar, wind, and hydropower—opportunities to enhance water resource efficiency, and avenues for generating higher value-added production through the modernization of the agricultural sector. Conversely, the article also provides a critical analysis of the principal barriers impeding progress toward a green economy. These challenges encompass limited access to financial resources, insufficient availability of modern technologies, outdated infrastructure, weak institutional capacity, and lack of environmental awareness [1].

Keywords: green economy, green financing, sustainable development, renewable energy, environmental awareness, green consumption, investment potential.

KIRISH

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi muammolari barcha mamlakat hukumatlarining global siyosatni ishlab chiqishda markaziy muammoga aylandi.

Kundan kunga rivojlanib borayotgan iqtisodiy faoliyat insoniyat hayotiga tahdid soladigan darajada ifloslanishni keltirib chiqarayotganini anglash, birinchi navbatda, iqtisodiyotga “yashil” yondashuvni olib kirishga turtki bo’ldi. Natijada esa, “yashil” iqtisodiyot tushunchasi paydo bo’ldi hamda iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari avlodlar ichida va avlodlar o’rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarni o’z oldiga maqsad qilib qo’ydi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur konsepsiya mamlakatlar uchun barqaror rivojlanish ya’ni aholi ehtiyojlarini to’la qondirish maqsadida kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo’ymaslikka asoslangan rivojlanishga intilish kerakligini isbotladi. Shu sababli, bugungi kunda dunyo bo’ylab atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalariga doir keng chora-tadbirlar ko’rilmoqda, islohotlar o’tkazilinmoqda. Xususan, “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror rivojlanishga o’tish O’zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo’lib, ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof-muhit o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish orqali erishish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori imzolandi [2]. 2022-yilning 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar ta’g’risida”gi PK-436-son qarori bilan esa O’zbekistonning yashil iqtisodiyotga o’tish maqsadlari belgilandi. Mazkur qarorda “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o’sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan [3].

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o’tish jarayoni qator muammolar bilan ham bog’liq: moliyaviy resurslarning yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalarning cheklanganligi, ekologik infratuzilmaning zaifligi, shuningdek, ekologik ongning past darajada shakllanganligi kabi omillar bu yo’nalishda tizimli yondashuv zarurligini taqozo etadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot O’zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tahlil qilish, bu yo’nalishdagi muammolar va istiqbolli imkoniyatlarni aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda, asosan, sifatli va miqdoriy tadqiqot yondashuvlari integratsiyalashgan holda qo’llanilgan.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar ishonchli birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida shakllantirildi: O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi statistik hisobotlari (2020–2024 yillar);

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy ma'lumotlari; BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Xalqaro Energiya Agentligi (IEA), Jahon Banki, Global Environmental Facility (GEF) kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston bo'yicha maxsus hisobotlari; O'zbekistonda va xorijda chop etilgan ilmiy maqolalar; "World Bank Data", "IEA Statistics", "UNESCAP Green Growth Indicators" kabi ochiq elektron bazalardan foydalanildi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy kontekstda tahlil qilish orqali mavjud real sharoitlar baholandi. Bu yondashuv milliy strategik hujjatlar ("O'zbekiston–2030" strategiyasi, Yashil iqtisodiyot dasturi, "Energiya samaradorligi 2030" konsepsiyasi) asosida amalga oshirildi. Bundan tashqari, tadqiqotda taqqosloviiy, strukturaviy, statistik tahlillardan hamda O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi mavjud istiqbolli imkoniyatlarni, muammo va kamchiliklarni yoritib berishda SWOT tahlildan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global miqyosda iqlim o'zgarishi, ekologik inqirozlar va tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan barqarorlik muammolari hozirgi davrda xalqaro hamjamiyat oldida eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning muqobil va uzoq muddatli barqaror modelini taklif etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni (2019–2030) qabul qilgan holda, ekologik barqarorlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi davrga qadam qo'ydi. Ushbu strategiya doirasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va yashil moliyalashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi.

O'zbekiston geografik va iqlimiy sharoiti bois quyosh va shamol energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha katta salohiyatga ega. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda yiliga 3000 dan ortiq quyoshli soatlar mavjud bo'lib, bu katta energiya ishlab chiqarish imkonini beradi. Energetika vazirligi tomonidan 2023-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 2 ta quyosh elektr stansiyasi (Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida) ishga tushirilgan va 2030-yilgacha yana 5 ta yirik loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan (Energetika vazirligi, 2023). Biroq amaldagi elektr energiyasi ishlab chiqarish tizimi asosan tabiiy gaz va boshqa an'anaviy manbalarga tayanadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2023-yil holatiga ko'ra umumiy ishlab chiqarishning atigi 10 foizini tashkil etmoqda (IEA, 2023). Bu esa yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining sekin kechayotganini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy muammolarga, balki

ekologik muammolarga yechimlar hamda yashil iqtisodiyotga o'tishni keng targ'ib qiluvchi tashabbuslarga ega startaplar ham keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, joriy yilda "Eco Expo Central Asia 2025" xalqaro ekologik texnologiyalar ko'rgazmasi doirasida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan innovatsion yechimlar va ekologik tashabbuslarni o'z ichiga olgan startap loyihalar taqdim etildi. Ishtirokchilar barqaror qishloq xo'jaligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik monitoringni raqamlashtirish va "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda ilg'or g'oyalarni namoyish etishdi[4]. Biroq, mamlakatda yashil startaplar uchun maxsus grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar hajmining kichikligi hamda "yashil" texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiya fondlarining yetishmasligi ilg'or g'oyalarning ommalashuviga to'siq bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, YaIMning qariyb 25 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu sektor eng ko'p suv sarflovchi soha hisoblanadi – umumiy suv iste'molining 90 foizidan ortig'i aynan qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi [5]. Biroq sug'orish tizimlarining eskirganligi, samaradorlikning pastligi, yerning sho'rlanishi kabi muammolar bu sohada yashil texnologiyalarning keng tatbiqini zarur etadi. FAO va UNDP ko'magida Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida "Smart Agriculture" (aqlli qishloq xo'jaligi) loyihalari joriy etilmoqda. Ushbu loyihalar doirasida tomchilatib sug'orish, agrodrone va tuproq monitoringi tizimlari sinovdan o'tkazilmoqda. Ammo bu tashabbuslar hali milliy darajada keng miqyosda amalga oshirilmayapti.

O'zbekiston aholisi orasida ekologik ong darajasi pastligicha qolmoqda. UNDP tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, aholining faqat 27 foizi yashil iqtisodiyot tushunchasini to'g'ri tushunadi, 15 foizi esa ekologik mahsulotlar yoki xizmatlar haqida yetarli ma'lumotga ega (UNDP Uzbekistan, 2022). Bugungi kunga kelib, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ekologik ong va yashil iste'mol keng targ'ib qilinishiga qaramay, omma orasida bunday foydali kontentlarni e'tiborsiz qoldirish holatlari ko'p kuzatilinmoqda. Bu holat yashil iste'mol madaniyatining shakllanishiga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Bunga sabab ekologik ta'lim tizimi yetarlicha rivojlanmaganligi hisoblanadi. Ta'limning yashil iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida bir nechta iqtisodchi olimlar tomonidan o'tkazilgan izlanishlarga nazar solsak, ta'limning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi, yashil texnologiyalarni, resurs tejovchi innovatsiyalarni joriy etishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, Xitoy Respublikasi misolida ta'lim va ifloslantiruvchi chiqindilar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilganda, ular orasida salbiy korrelatsion bog'liqlik borligi aniqlangan [7](1-rasm):

Variable	Model (1)
<i>Edu</i>	-0.001 *** (0.000)
<i>GDP</i>	0.000 (0.000)
<i>Dens</i>	-0.001 *** (0.000)
<i>Open</i>	0.001 (0.000)

1-rasm. Ta'limning ifloslantiruvchi moddalar emissiyasiga ta'siri.

Ya'ni mamlakatda ta'lim darajasi yuqori bo'lganda atmosferani ifloslantiruvchi chiqindi moddalar miqdori kamayadi va aksincha. Mazkur ma'lumotlar Xitoyda ta'lim va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydi va bu holat turli mintaqalarda farq qilishi mumkin. Ammo boshqa mamlakatlarda ham bu ikki omilning o'rtasidagi salbiy bog'liqlikka erishish yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi katta qadamlardan biri bo'ladi. Bunga asosiy sabab esa, ta'lim orqali aholi o'rtasida ekologik savodxonlik va bu orqali yashil iste'molni, yoshlar hamda olimlar tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy-innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlanishi va keng targ'ib qilinishi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bugungi kunda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida muhim bosqichda turibdi. Yurtimizda mavjud tabiiy resurslar – quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalarining yuqori salohiyati, shuningdek, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga bo'lgan e'tibor, yashil iqtisodiyotga o'tish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bu yo'lda hali yechimini kutayotgan muammolar ham talaygina.

Avvalo, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, ayrim sohalarda eskirgan infratuzilmaning mavjudligi va idoralararo hamkorlikning sustligi yashil iqtisodiyot siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, aholining ekologik ongi hali yetarli darajada shakllanmagan, bu esa yashil iste'mol madaniyatining sust bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kerak. Bu borada quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalarini ko'paytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Yashil moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun yashil obligatsiyalar, xalqaro grantlar va ekologik fondlar orqali mablag'larni jalb qilish, shuningdek, banklar va moliyaviy institutlarni ekologik loyihalarni moliyalashtirishga undash zarur.

Qishloq xo'jaligida ekologik texnologiyalarni keng joriy etish kerak. Tomchilatib sug'orish, suv tejovchi texnikalardan foydalanish, organik o'g'itlar va

raqamli monitoring tizimlari orqali qishloq xo'jaligini samarador va ekologik xavfsiz qilish mumkin.

Aholining ekologik ongini oshirish uchun ta'lim tizimida ekologik fanlar sonini ko'paytirish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish, maktab va oliy o'quv yurtlarida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Yashil iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona organ yoki koordinatsiya markazini tashkil etish orqali sohalararo hamkorlikni kuchaytirish va ekologik siyosatni markazlashtirib boshqarishga erishish imkoniyati mavjud.

Yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini kuzatib borish va baholash tizimini joriy qilish orqali har yili o'zgarishlar tahlil qilinib, natijalarga qarab siyosiy qarorlar yangilanishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston yashil iqtisodiyot sari yo'nalishda katta imkoniyatlarga ega. Eng muhimi — mavjud resurslardan to'g'ri foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali bu maqsadlarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition (2023). <https://www.oecd.org/environment/uzbekistan-green-financing-report.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida. PF-5953-son.
3. S.N.Xashimova. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: "Ma'rifat", 2024
4. <https://startupgenome.com/report/gser2025/uzbekistan-central-asias-fastest-rising-startup-ecosystem>
5. Food and Agriculture Organization (FAO) Uzbekistan, 2023. <https://openknowledge.fao.org/items/c570b4bc-9c01-4e4b-a8fe-c07390cd0c8d>
6. UNEP (United Nations Environment Programme). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP. <https://www.unep.org>
7. Xiaohua Li, Lina Ma, Salahuddin Khan and Xin Zhao. The role of education and green innovation in green transition: Advancing the United Nations agenda on sustainable development. <https://doi.org/10.3390/su151612410>
8. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: "Universitet", 2020 – bet 11.
9. Qodirov B.D. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurati // Scientific journal "Research and education", 2023
10. Molly Scott Cato Green Economics An introduction to Theory, Policy and Practice, 2009
11. Jahon Banki. (2023). Uzbekistan Green Growth Assessment: Unlocking Opportunities for a Resilient and Low-Carbon Future. Washington D.C.: World Bank Group. <https://www.worldbank.org>